


22. Zahro kulrang va oq kataklardan iborat maydon bo'ylab A dan B ga o'tishi kerak. U faqat o'ngga yoki tepaga harakatlana oladi. U har safar kulrang katakka bosganida 1 yevro, oq katakka bosganida esa 2 yevro to'lashi kerak. U "eng arzon" yo'l bo'ylab harakatlansa necha yevro to'laydi?



- (A) 11 yevro (B) 12 yevro (C) 13 yevro (D) 15 yevro (E) 16 yevro

23. Yulduzda matematikadan may oyi uchun bir qancha masalalardan iborat topshiriq bor. U masalalarni 1-may kuni ishlashni boshlaydi.

MAY 2024						
Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

Agar u kuniga 2 tadan masala ishlasa, u topshiriqni yakshanba kuni, agar kuniga 3 tadan masala ishlasa, chorshanba kuni tugatadi. Yulduzning topshirig'i nechta masaladan iborat?

- (A) 6 (B) 12 (C) 18 (D) 24 (E) 30

24. Eldor nishonga o'q otdi. U avval 10 ta o'q oldi va har safar nishonga tekkanida yana ikkitadan qo'shimcha o'q oldi. Eldor unda birorta ham o'q qolmaguncha o'q otishni davom ettirdi. U hammasi bo'lib 20 ta o'q otgan. Eldor necha marta nishonga tekkan?

- (A) 4 (B) 5 (C) 6 (D) 8 (E) 10




Tanlov 75 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mos keladi (A – E). Berilgan topshiriqlarning to'liq yechimini keltirish talab etilmaydi. Tanlovda maktab dasturidan tashqari savollar ham uchrashi mumkin.

2024 yil, 26-mart

2-sinf


3 balli masalalar

1. Qaysi son uchburchak, kvadrat va aylananing ichida joylashgan?




- (A) 1 (B) 4 (C) 5 (D) 9 (E) 12

2. Ikkita shisha plastinalar ustiga figuralar tasviri tushirilgan.




Agar Anora shu ikki plastinadan birini aylantirmagan holda ikkinchisining ustiga qo'ysa, u nimani ko'rishi mumkin?




3. Rasmda ichida qora nuqtalari bor bo'lgan to'rtta figura tasvirlangan. Shu figuralarning nechtasida roppa-rosa uchta nuqta bor?

- (A) 0 (B) 1 (C) 2
(D) 3 (E) 4




4. Kamol stolning ustiga rasmni qo'ydi va quyida ko'rsatilganidek soat strelkasi bo'ylab aylantirdi.



Agar Kamol xuddi shu tarzda rasmni yana bir marta aylantirsa, rasm qanday ko'rinishda bo'ladi?

- (A) (B) (C) (D) (E)


5. Alina 8 ta turli xil odamchanning rasmini chizdi. Faqat bitta odamchadan tashqari qolgan hammasi ikki martadan chizilgan.



Alina qaysi odamchanning rasmini faqat bir marta chizgan?

- (A) (B) (C) (D) (E)

19. Qaysi ikkita bo'lak yordamida boshqotirmaning bo'sh qismini to'ldirish mumkin? (bo'laklarni bir-birini ustiga qo'yish mumkin emas)



- (A) 1 va 2 (B) 1 va 3 (C) 3 va 4 (D) 2 va 4 (E) 2 va 3


20. Izzat, Behruz, Shohjahon va Davronlarning har birida uchta dan figuralar bor. Shu uchta figuraning har biri boshqa bolalardagi figuralarning biriga mos keladi. Har qanday ikkita bolada faqat bittadan figura mos keladi. Bizga Izzat, Behruz va Shohjahonlarning figuralari ma'lum:

- Izzat
Behruz
Shohjahon

Davronda qanday figuralar bor?

- (A) (B) (C)
(D) (E)


21. Zohid uch xil figuradan minoralar qurdi. Uchta minoraning balandligi rasmda ko'rsatilgan.



To'rtinchi minoraning balandligini toping.

- (A) 12 (B) 13 (C) 14 (D) 16 (E) 17

16. Rasmdagi sonlardan biri u bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan sonlar yig'indisiga teng.




Bu qaysi son?

- (A) 3 (B) 5 (C) 7 (D) 10 (E) 12


5 balli masalalar

17. Xonzodada shaffof kub bor. Uning ichiga oltita kichik kublar rasmda ko'rsatilganidek biriktirilgan. Xonzoda kubga tepadan qaraganida nimani ko'radi?



- (A) (B) (C) (D) (E)


18. Javohir doskada yozilgan sonlardan ikkitasini tanlab, ularni qo'shmoqchi.



Javohirda nechta turli xil natija hosil bo'lishi mumkin?


- (A) 5 (B) 6 (C) 7 (D) 8 (E) 10

6. Bobur bir xil o'lchamdagi kichik uchburchaklar yordamida katta uchburchak yig'moqchi. Buning uchun unga yana nechta kichik uchburchaklar kerak bo'ladi?



- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7

7. Rasmda ko'rsatilgan raqamlarning har biri tasma bo'lagidan yasalgan.



Qaysi raqamni yasash uchun uzunroq tasma ishlatilgan?

- (A) 1 (B) 2 (C) 5 (D) 6 (E) Tasmalar bir xil uzunlikka ega

8. Laziza o'ng tomondagi muhrni bosganida qog'ozda qanday tasvirni ko'radi?



- (A) (B) (C) (D) (E)

4 balli masalalar


9. Anvar rasmda ko'rsatilgan 4 ta bir xil qismlardan figuralar yasadi.




U quyidagi figuralardan qaysi birini yasay olmaydi?

- (A) (B) (C) (D) (E)

10. Sofiyada 5 ta savat bor. Har bir savat ichida 4 tadan o'yinchoq bor.



U 4 ta savatni ag'darib yubordi va ulardagi o'yinchoqlar sochilib ketdi.




U qaysi savatni ag'darmagan?

- (A) A (B) B (C) C (D) D (E) E

11. O'ng tomondagi diagrammada har bir figura ma'lum bir raqamga teng.

★ qaysi raqamga teng?


- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6




12. Iroda labirintdan o'tganida faqatgina sonlari yig'indisi 7 ga teng bo'lgan xonalardan yuradi.

Labirintdan chiqish joylariga mevalar rasmi chizilgan. Iroda qaysi meva rasmi chizilgan chiqish joyidan foydalanadi?

- (A) (B) (C) (D) (E)




13. O'yinchoq poni balandligi 1 metr, eni 1 metr va uzunligi 2 metr bo'lgan qutiga joylangan. Quti rasmda ko'rsatilganidek, tasma bilan o'ralgan.



Agar gulchambar va tugunlar uchun qo'shimcha 1 metr tasma ishlatilgan bo'lsa, jami necha metr tasma ishlatilgan?

- (A) 9 metr (B) 11 metr (C) 13 metr
(D) 15 metr (E) 17 metr

14. Uchburchak ichidagi sonlar yig'indisi aylana ichidagi sonlar yig'indisidan ikki marta katta bo'lishi ushun so'roq belgisi o'rnida qanday son bo'lishi kerak?



- (A) 3 (B) 5 (C) 8 (D) 11 (E) 16

15. Zarina 5 xil stikerlarni ketma-ket bir xil tartibda yopishtirdi.



Tartibdagi yigirma yettinchi stiker qaysi?

- (A) (B) (C) (D) (E)